



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



LINGUOCULTURAL INTERPRETATION OF THE LEXEMES “SOUL”, “SPIRIT”, AND “HEART” IN THE LINGUISTIC WORLDVIEW

Zokhida Oripovna Amirova

PhD in Philology, Associate Professor

Karshi State University

Karshi, Uzbekistann

ABOUT ARTICLE

Key words: soul, inner self, heart, linguocultural analysis, linguistic picture of the, concept, semantics.

Received: 12.10.25

Accepted: 13.10.25

Published: 14.10.25

Abstract: The article examines the lexemes “soul”, “heart“ within the framework of the linguistic worldview from a linguocultural perspective. The research focuses on their semantic scope, conceptual load, and cultural-pragmatic functions through comparative analysis. Particular attention is given to how these notions are represented in national mentality, cognitive perception, and discourse in Uzbek and English.

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA “JON”, “KO‘NGIL” VA “YURAK” LEKSIMALAR LINGVOMADANIY TALQINI

Zohida Oripovna Amirova

f.f.f.d.,dotsent

Qarshi davlat universiteti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: jon, koʻngil, yurak, lingvomadaniy tahlil, lisoniy manzara, konsept, semantika.

Annotatsiya: Maqolada “jon”, “ko‘ngil” va “yurak” leksikalari olamning lisoniy manzarasi doirasida lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ushbu birliklarning semantik hajmi, konseptual mazmuni va madaniy-pragmatik funksiyalari o‘zaro solishtirma asosda o‘rganiladi. Tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida mazkur tushunchalarning milliy mentalitet, kognitiv tasavvur va diskursdagi ifodalanish xususiyatlari yoritiladi.

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЕКСЕМ “ДУША”, “СЕРДЦЕ/ДУХ”,
И “СЕРДЦЕ” В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА**

Зохида Ориповна Амирова

кандидат филологических наук, доцент

Каришинский государственный университет

Кариши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: душа, внутренний мир, сердце, лингвокультурный анализ, языковая картина мира, концепт, семантика.

Аннотация: В статье проводится лингвокультурный анализ лексем «душа», «сердце» в контексте языковой картины мира. Рассматриваются их семантический объём, концептуальная структура и культурно-прагматические функции на сравнительной основе. Особое внимание уделяется отражению данных понятий в национальном менталитете, когнитивном восприятии и дискурсивных проявлениях в узбекском и английском языках.

Kirish. Ma'lumki, madaniyat tabiatda mavjud bo'lgan narsalardan farqli ravishda inson yaratgan hamma narsani o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, har qanday insoniy faoliyat, madaniyat deb hisoblanadigan jamiki narsalarning tilda yaratilishi nafaqat til amal qilishi tufayli mavjud bo'lishini ham hisobga olish lozim.

G.G.Slishkin hamda V.I.Karasik "Lingvomadaniy konsept tadqiqot birligi sifatida" nomli maqolasida lingvomadaniy konsept "fanning har xil sohalarida qo'llaniladigan boshqa birliklar (masalan, kognitiv konsept, freym, ssenariy, skript, tushuncha, obraz) dan asosiy diqqat-e'tiborning qadriyatli elementga qaratilishi bilan farqlanadi", deb fikr bildirishgan.

Matnni lingvistik tahlil qilishning markaziy atamasi "kontseptsiya"dir.

Kontsept – ob'ekt yoki hodisani jamiyat talqini va munosabatlari asosida aks ettiruvchi mavhum tahlil birligi. Turli mualliflar kontseptni turli yo'llar bilan izohlaydilar, lekin u ifodali, tushunchaga oid va qiymatga oid rejalarini o'z ichiga oladi.

Agar "heart-ko'ngil" leksemasini izlab lug'atlarga murojaat qiladigan bo'lsa, unda bir qator talqinlarni topish mumkin va ularning ayrimlari bir necha tillar uchun umumiy bo'lib chiqadi. Biz ushbu izohli lug'atlarni qiyoslash natijasida oladigan eng umumiy tusdagi belgilarni tushuncha deb atash mumkin, buning ustiga lug'atdagi definitsiya mazmuni lug'at mavzusi, jamiyatdagi hukmron mafkura, bunday taqqoslashni amalga oshiruvchilarining tajribasi va qarashlari bilan belgilanishini hisobga olganda bunday tushunchaning universalligi ancha shartli bo'lib hisoblanadi.

Binobarin, so'z semantikasi bilan ushbu so'z belgilaydigan konsept o'rtasida tenglik belgisini qo'yish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, konsept an'anaviy tarzda tushuniladigani kabi mohiyat emas.

Olam lisoniy manzarasi til sohiblarining butun olam haqidagi tasavvurlari, qarashlari, tafakkurining natijasi hisoblanadi. Olamning subyektiv obrazini yaratuvchi tildir. Hozirgi olamning lisoniy manzarasi xususidagi zamonaviy yondashuvlarda ham til va madaniyatning yaxlitligi masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Ularning mushtarakligi olam lisoniy manzarasida ifodasini topadi. Muayyan xalq madaniyati tilda verbal yoki noverbal vositalar bilan ta'riflanadi. Bu manzara tasvirida qadriyatlarning roli beqiyos. Dunyodagi tillarning turfa xilligiga bog'liq olamning lisoniy manzarasi ham rang-barangdir. Shu o'rinda, qadriyatlar olam lisoniy obrazini kishilar ko'z o'ngida gavdalanitiruvchi bo'lib hisoblanishini ta'kidlash kerak. Demoqchimizki, olam lisoniy manzarasi qadriyatlar orqali baholanadi. Til faktida umumbashariy va milliy-madaniy qadriyatlar aks etganligi kuzatiladi.

Olimlarning ko'pchiligi konseptning shubhasiz "alohida belgisi" ekanligini, ya'ni uning noaniq mohiyat sifatida yaqqol mohiyat, ya'ni jaranglaydigan yoki yozilgan so'z bilan aloqada bo'lishini e'tirof etishadi: "tildagi belgining ahamiyati haqidagi masala bilim deganda qanday konseptual yoki kognitiv hosilaning tushunilishi, dunyo to'g'risidagi umumiy axborotlar oqimidan belgi vositasida qanchalik axborot kvanti chiqarib olinishi haqidagi masala sifatida ifodalanishi lozim".

Ijtimoiy ong deb ataladigan darajada biz belgi talqinlariga duch kelamiz: kuzatuvchi kuzatilayotgan shaxsning asab tizimida yuz berayotgan o'zgarishlarni bila olmaydi, u mazkur shaxsning faqat muhitdagi harakatlari bayonidan xabardor bo'lishi mumkin. U yoki boshqa konsept belgisining talqini kuzatuvchining kuzatuvdan o'tkazilayotgan shaxsning muhitning tarkibiy qismi bo'lgan belgi bilan o'zaro harakatlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarini ko'rsatishidan iborat bo'ladi. Konsept – bu belgining ehtimol tutilgan talqinlari sohasidir.

Shunday qilib, konsept faqat uni tahlil qiluvchi va undagi belgilarni va belgilar – konsept tarkibiy qismlarining – uning belgisi bilan aloqasini ajratib ko'rsatadigan tadqiqotchi uchun tuzilma bo'lib hisoblanadi. Binobarin, konsept – bu konsept nomi hisoblanadigan belgi talqinidagi aloqalarni kuzatadigan operatsiya sababli amal qiladigan sun'iy konstrukt, ko'proq yoki kamroq qulay bo'lgan tahliliy yasama vaziyatdir.

Bugungi kunga kelib inson ongida so'zlar o'zining ichki shakliga ega bo'lmaydi, chunki u unutilgan. Lingvistikada esa leksik birliklarning botiniy shakli etimologik tahlil so'zning birlamchi motivlashganligini ko'rish mumkin. Bu esa tildagi etnik dunyoqarashning muhim jihatlarini aniqlashga ko'maklashadi. Botiniy shakl hosil qiladigan assotsiatsiyalar va ma'no alomatlari leksik mohiyatlarning denotativ tarkibiy qismiga nisbatan ko'proq etnomadaniy o'ziga xoslikka ega bo'ladi; "botiniy shakl leksik mohiyat bilan bog'langach dunyoni so'z orqali tasavvur qilishning o'ziga xos bo'rtma ifodasini yaratadi".

Jon – “oddiy so‘z ishlatilishida jonli mavjudot ongi niyat-u tilaklarining majmui, jism va materiya tushunchalari antitezasidir”. Nafas olish tarzidagi jon haqidagi qadimiy tasavvurlar hosil bo‘lishida o‘lik mavjudotda yo‘qolib ketadigan, faqat tirik mavjudotga xos bo‘lgan nafas olishning kuzatilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Xuddi shunday qon na ko‘p miqdordagi qon yo‘qotilganida jon chiqishi ustidagi kuzatuvlar ham qonda jon timsolini ko‘rishga olib kelgan.

Turli xalqlarda har xil organlar: yurak, jigar, diafragma, o‘pka, buyraklar va shu kabilar jon saqlanadigan joy deb hisoblangan. Diniy nuqtai nazardan olganda, jon odamni tashqi dunyo bilan bog‘lab turadi, shuning uchun insonning o‘zini-o‘zi takomillashtirishga doir faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

“Jon” konsepti o‘zbek tilida jon so‘zi bilan beriladi va moddiy negiz jismoniy hayotiylik asosini ifodalaydi. Dunyoning tildagi sodda tasviriga binoan, jon abadiy va uni yo‘qotib bo‘lmaydi. Aynan shu jon mavjudodligi tirikni o‘likdan ajratib: jonini olish-o‘ldirish, jon bermoq-o‘lmoq, jon chiqarmoq; jon olish va jon berish –hayot –mamot orasi yoki ochin-to‘qin yashamok; jon saqlash – yashash, tirik bo‘lmoq; jondan bezish, jondan to‘ymoq -yashashdan charchagan, butun umidlari puchga chiqqan va o‘limini kutayotgan odam holati haqida.

Kunlardan bir kun joni tag‘in qadrdonlari vaslini shunday qumsab ketdiki, uning ming hayol bilpng avramoqchi bo‘ldiyam, kor qilmadi .

But woo her, gentle Paris, get her heart .

Jon odamni yoki umuman jonli mavjudotni ifodalashi mumkin. Kambag‘allar ham xuddi boylarga o‘xshab yaxshi yashashni xohlaydigan jonlardir. Parrandalaru hasharotlar, jamiki tirik mavjudot dalada g‘ujg‘on o‘ynaydi.

Jon so‘zi ko‘pincha eng yaqin, qadrdon, suyuqli kishiga nisbatan, odatda, egalik qo‘shimchasi bilan murojaat etish uchun ham ishlatiladi: jonim, jonimning bir bo‘lagi; jon yo‘ldoshim – yaqin do‘st yoki sevimli yor haqida; jon do‘stim – qadrdon do‘st; jondan ham suyuqli – sevimli yor haqida. Bolani o‘stiramiz, jonim deymiz, lekin bir kuni u bilan vidolashishga to‘g‘ri keladi (qiyoslang.: Jonim mening!).

Well said, my hearts!-You are a princex, go .

Jon – bu bevosita insonning hayoti va uning hissiy olami bilan bog‘liq konseptdir. Yevropa tillarida jon konsepti qasamyod qilishda ishlatiladi: ing. upon my soul – Qasamyod qilaman!

Biz tahlildan o‘tkazgan misollarimizda jon bilan tananing, jon bilan jismning barqaror tarzidagi bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishini ko‘rmadik; o‘zbek lingvomadaniyatida, aksincha, tani-jonim, jonu-tanim birikmasi amal qiladi.

Ko‘ngil – bu emotsiya, har xil his-tuyg‘ular, kayfiyat sohasi ekanligini quyidagi hosila so‘zlar aniq ko‘rsatadi: quvnok, shod, xafa, zerikkan, g‘amgin.

O'zbek tilida derivat ko'ngildan mavjud bo'lib, ushbu adverbiallashgan so'z bosh kelishikdagi affiks yordamida ko'ngil so'zidan yasalgan.

Shuni qayd qilish kerakki, leksema ko'ngil nutqda juda ko'p ishlatiladiki, bu dunyoning o'zbek tilidagi manzarasida g'oyat muhimligidan dalolat beradi. Kimnidir yoki nimanidir sevmay qo'yish: nimadandir ko'ngil sovishi; nimadandir ko'ngil qolishi: nimadandir ko'ngil to'lishi: boshqa odamlarni xush ko'rmaydigan kishilar haqida; ko'ngil azobidan qutulish; azob, dil iztiroblari. ko'ngil qiynalishi: ma'nosini ifodalash uchun ko'pipcha yurak konsepti ishlatiladi: ingl., by heart)

Ko'ngil konsepti insonniig fiziologik holatini yetkazish uchun qo'llaniladi: behuzurlik hissi. Dunyo sodda manzarasining yaxlit tusi, sinkretizmi shu taxlitda namoyon bo'ladi.

Ko'ngil jo'sh urishi mumkin. Mening jo'shqin ko'nglim, yuragim ko'kragimdan chiqib ketay deyapti.

Xafa bo'lish, ko'ngil qolishi. Ko'ngil – inson botiniy dunyosining alohida mohiyatidir. Bu yo bo'lishi, yo bo'lmasligi mumkin narsadir.

Xullas, dunyoning tildagi oddiy manzarasiga muvofiq, ko'ngil - bu nafaqat nomoddiy, ma'naviy hosila, bu butunlay moddiy, hatto nomoddiy, ideal, ma'naviy omillarning fizik parametrlari va tavsifnomalari majmuidir.

Yurak – tana bo'ylab qonni haydaydigan organdir: yurak ishi, yurak urishi. Mening yuragimning dukillashi butun uy bo'ylab eshitilardi. Men uning yoniga borganimda yuragim shunday ura boshladiki, butun vujudim titrab ketdi.

Bu so'z shuningdek, ko'krak qafasining yurak joylashgan chap tomoni bilan ham qiyos beriladi: Mana, agar ishonmasang, yuragimni ushlab ko'r, u xuddi baliq kabi tipirchilayapti .

Put your hand on your heart and listen to my advice .

Qayd qilishlaricha, dunyoning rus tilidagi sodda manzarasida “yurak – yaxshi his-tuyg'ular pinhon bo'lgan organdir”. – Bu so'zning o'zbek tilidagi ko'chma ma'nosi ham insonning his-tuyg'ulari va kechinmalari bilan bog'liq. Bu musiqa – xalq qalbining ohanglaridir. Tabiiyki, yurak – muhabbat timsoli.

Yurak bilan bog'langan so'zlar tahlili ham shuni ko'rsatadi; yurakli – mard, dovyurak, yuraksiz – qo'rqqoq, yuraksiz; yuragi bor – jasur bo'lmoq, dadillashmoq: dadillashmoq, jonlanmoq, yuragi betlamoq.

Dunyoning sodda manzarasida yurakning kattaligi oliyhimmatli bilan bevosita bog'liqdir: katta yurakli odam) – olijanob, ingl. A big heart- ulkan yurak, katta yurak - himmatlilik, muruvvat.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ichki dunyo konseptlarini bayon qilishning murakkab ekanligi shu bilan bog'liqki, yuqorida ko'rib chiqilgan konseptlar nafaqat emotsiyalar olamini taqdim etadi. Ko'ngil va jon umuman hayot bilai bog'liqdir. Ko'rib chiqilgan barcha konseptlar u

yoki boshqacha jihatdan umuman ong bilan, qaysidir darajada iroda va vijdon, borliq qa'rini intuitiv anglab yetish bilan bog'liqdir.

Olamning o'zbek va ingliz tillarida aks etgan manzaralarida heart so'zi insoniy his-tuyg'ular, sezgilar, kayfiyatlarni o'z ichiga qamrab oladigan organni anglatadi.

Shunisi qiziqki, taqqoslanayotgan tillarda ko'rsatilgan his-tuyg'ularni ifodalash uchun ishlatiladigan emotiv frazeologizmlar miqdoriy jihatdan bab-baravar tarzda mavjud bo'lmaydi. Dunyoning qiyos qilinayotgan tillarda aks etadigan manzaralarida yurak heart ko'ngil so'zi ishq-muhabbat ramzi bo'ladi. Ingliz tillarida so'zlashuvchilar ko'ngilni egallash yoki yutib olish (to gain one's heart), o'g'irlash to steal one's heart), yo'qotib qo'yish to lose one's heart to smb.) mumkin bo'lgan qimmatbaho narsaga qiyoslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования. Методологические проблемы когнитивной лингвистики. - Воронеж: ВГУ, 2001. - С. 75-80.
2. Алефиренко Н.Ф. Когнитивно-лингвистические механизмы семиотика. Стефана Димитрова: научно трудовое. Сер. Филология. - 2005. - Т. 41, кн. 1. - С. 185.
3. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика: Пособие для студентов гуманитар.вузов и учащихся лицеев. – Москва: 2000 Аспект Пресс, –С. 57.
4. Ҳамдам У. Исён ва итоат. Роман.–Тошкент: Янги аср авлоди. – 2003. – Б.58
5. Shakespeare, William, 1564-1616. Romeo and Juliet. Edited by John Crowther. –New-York: 2003. – P.-54
6. <https://cyberleninka.ru>
7. <https://e-library.namdu.uz>